

KOMIL XORAZMIYNING HAYOTI VA IJODI

Umida Zaripboyeva

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: umidazaripboyeva629@gmail.com

Annnnotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvari, Xorazm adabiy muhitida o'zining tarixiy asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan yozuvchi va shoир, Xorazm musiqasining asoschilaridan biri Komil Xorazmiy va uning ijodi haqida ma'lumot berladi.

Kalit so'z va iboralar: Muhammad Rahimxon II, Pahlavon Niyoz Muhammad, Komil Xorazmiy, Abdulla Oxun, "Kamol", "Murabbai Komil", "Peshravi Feruz", "Tama", "Fuzalo", "Juhalo", Rossiya sayohati.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об узбекском просветителе, писателе и поэте, оставившим неизгладимый след в литературной среде Хорезма своими историческими произведениями, Камиле Хорезми, одном из основоположников хорезмийской музыки, и его творчестве.

Ключевые слова и фразы: Мухаммед Рахимхан II, Пахлавон Нияз Мухаммед, Камиль Хорезми, Абдулла Охун, «Камаль», «Мураббай Камиль», «Пешрави Феруз», «Тама», «Фузало», «Джухало», поезд и Россию.

Abstract: This article provides information about the Uzbek enlightener, writer and poet who left an indelible mark on the Khorezm literary environment with his historical works, Kamil Khorezmi, one of the founders of Khorezm music, and his work.

Key words and phrases: Muhammad Rahimkhan II, Pahlavon Niyaz Muhammad, Kamil Khorazmi, Abdulla Okhun, "Kamal", "Murabbai Kamil", "Peshravi Feruz", "Tama", "Fuzalo", "Juhalo", trip to Russia.

Xorazm diyori azaldan o'zining olimlari, musiqachilar, shoirlari va yozuvchilar bilan mashhurdir. Bu o'lkada ko'plab olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. Ayniqsa Muhammad Rahimxon II Feruz davrida ayniqsa madaniy sohaga katta e'tibor berilib, ko'plab olimlar faoliyat olib borganlar. Shulardan biri, XIX asr yurtimiz madaniy hayotda o'zining asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan xorazmlik shoир Komil Xorazmiydir.

Komil Xorazmiy XIX asrda yashab ijod etgan ma'rifatpavrар shoир, san'atkor, xattot, davlat arbobi, o'z davri ilg'or madaniyatining mashhur vakillaridan biridir. Komil – shoирning adabiy taxallusi bo'lib, uning asl nomi Pahlavon Niyoz Muhammaddir. Pahlavon Niyoz Muhammad 1825-yilda Xivada, mudarris Abdulla Oxun oilasida tug'ilgan. U dastlabki saboqlarni mahalla masjidi qoshidagi maktabdan, so'ng o'z otasidan olgan. Abdulla Oxun o'g'liga arab, fors tillarini o'rgatgan va adabiyotga havas uyg'otgan. Komil mahalla maktabini tamomlagach, Xiva shahridagi madrasalardan birida tahsil olgan. U mumtoz adabiyot vakillarining ijodini zo'r havas bilan o'rgangan. Navoiyni o'ziga ustoz bilib, unga taqlidan she'rlar yoza boshlagan va tez orada mashhur shoир bo'lib yetishgan. U musiqa va xattotlik san'atini ham madrasada

o‘qib yurgan davrida o‘rgangan edi.

Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida berilgan ma’lumotlarga qaraganda, Komil Xorazmiy xon saroyida turli ma’muriy ishlarda qatnashgan, jumladan, 1861-yilda Buxoroda Amir Muzaffar zamonasida Xorazmdan Buxoroga elchi bo’lib borgan.

1873-yil Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga qo’shib olingandan so’ng xonlikning mashhur amaldorlaridan bo’lgan – Muhammad Murod devonbegi va boshqa bir qator saroy amaldorlari chekka o’lkalarga surgun qilingan. Shundan so’ng, Komil Xorazmiy devonbegi etib tayinlangan¹.

Komildagi iste’dodni ko‘rgan Xiva hukmdori Said Muhammad (1856 – 1865) uni saroya tortadi va u xon saroyida xattot, Muhammad Rahim II Feruz (1865 – 1910) davrida esa mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida xizmat qiladi. Zamonasining ilg’or kishilaridan biri bo’lgan Komil Xorazmiy keyinchalik salomatligini yo’qotib, qarigan vaqtida ko’zi ojizlanib 1897-yilda vafot etgan.

Komil Xorazmiy o‘z asarlarida an’anaviy ishq-muhabbat, may-muhbub, ma’rifatparvarlik, tinch-totuv yashash g‘oyalari targ‘ib qiladi. Ammo shoir ijodida ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rinni egallagan. Bunga shoirning “Kamol”, “Dar bayoni ta’rifi va tavsifi Toshkand”, “Tillo soat” kabi asarlari yaqqol misol bo‘ladi. Komil 1891-yil sentyabr oyida Peterburgga borayotib Toshkentda to‘xtab, “Turkiston viloyatining gazeti” tahririyatining iltimosi bilan “Toshkent” deb nomlangan qasida yozadi. Uning bu qasidasi o‘zbek adabiyotida yangi ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan yirik she’riy asardir².

Komil Xorazmiy “pahlavon” nomi bilan mashhur bo’lgan. Ma’lumotlarga ko’ra, jangda hech kim bas kela olmaydigan zabardast pahlavon Qoraboloqqa Muhammadniyoq Komil bas kelgan. Jangdagi bunday jasoratdan keyin Muhammadniyoq Komil adabiy siymosini bezaguvchi “Pahlavon” nomi bilan mashhur bo’lgan³.

Peterburg, Moskva, Toshkent kabi shaharlarni tomosha qilish, xalq ahvoli bilan tanishish shoir qalbidagi vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirdi. Vatan taqdiri va uning kelajagi shoirga tinchlik bermadi.

Komil birinchi bo’lib o‘zbek nota yozuvini ixtiro qilqan. Devoniy dutorning tamom maqomlariga o‘z aqlu-farosatining natijasida, bit katta nota Feruzning farmoni bilan “Tanbur chiziqlari” deb ataluvchi Xorazm notasini yaratgan va “Rost” maqomining bosh qismini notaga tushirgan. Komilning “Rost” maqomiga bog‘langan “Murabbai Komil”, “Peshravi Feruz” singari kuylari notaga yozilgani holda hozirgacha saqlanmoqda va xonanda, sozandalar tomonidan kuylanmoqda.

Shoirning bu ishini o‘g’li Muhammadrasul Mirzo davom ettirib, Xorazm maqom kuylari uchun nota asosida musiqa yaratgan. Taniqli kompozitor

¹ Комил Хоразмий. Танланган шеърлар. – Т., 1961. – Б. 1-2.

² <https://oriftolib.uz>

³ <https://axiv.uz>

Matniyoz Yusupov esa besh tomlik Xorazm maqomlari kitobini nashrdan chiqargan va keng o'quvchilar ommasiga taqdim qilgan.

Komil Xorazmiy bundan tashqari temir va po'lat ishlariga ham mahoratli bo'lib, turli pichoq, xanjar, qilichlarni ishlab, ularga har xil oltin, kumushlardan ismlar bergen⁴.

Komil Xorazmiyning madaniy-adabiy merosi xilma-xil va boydir. Ularning ko'pchiliginan an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusi tashkil qiladi. Bu mavzuda ko'p asarlar yozilgan bo'lsa ham, shoir unga o'zining yangi she'ru dostonlari bilan munosib ulush qo'shdi.

Navoiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning ijodi Komil Xorazmiy uchun adabiy maktab bo'lgan. U o'z salaflari ijodini chuqur o'rgangan. Ularning asarlarida kuylangan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalaridan ijodiy foydalandi. Shuning uchun shoir ijodida xalqchillik g'oyasi alohida o'rin egallagan. Bu g'oya Komil asarlarining mag'z-mag'ziga singib ketgan.

Komil Xorazmiy yashagan davrda Xiva xonligi Rus chorizmining vassali bo'lib, xalq turmushi nihoyatda ayanchli ahvolda edi. Zulm va zo'rliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shoir mehnatkash xalq hayotiga achindi, uni yengillashtirish choralarini izladi. Ammo topolmadi. Shuning uchun u xon va uning amaddorlarini insof va adolatga, mehr-shafqatga da'vat etdi.

Komil Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'analarini davom ettirgan, ijodiy rivojlantirgan. Shuning uchun uning ko'pgina asarlarida hukmron tabaqalarning johilligi, munofiqligi, shafqatsizligi fosh etilgan. Bunga shoirning "Tama", "Ro'za", "Mulloimom" kabi she'rlari yorqin misol bo'ladi⁵.

Komil Xorazmiy fors tilini ham yaxshi bilgan. Xiva xonligidagi adolatsizlik, jabr-zulmni turmush illatlarini fosh qilishda fors tilidan ham unumli foydlangan. Shoirning "Alg'iyo", "Zi bedodi gardun", "Dod az dasti charxi dun" mat'lai bilan boshlanadigan g'azallari isyonkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan. Komil odamlarni ezgulikka da'vat etadi. Yemonlik qilishdan, qabohatdan nari yurishga chaqiradi.

Hissiyot orqali tafakkurni uyg'otishni anglagan shoir xalqning qalb ko'zini ochish, ularda atrofda bo'layotgan munosabatlarga faol munosabatda bo'ishni undadi. Shu yo'nalishda uning "Tama", "Fuzalo", "Juhalo" kabi ijtimoiy – falsafiy mazmundagi g'azallari yaratilgan⁶.

Komil Xorazmiy mohir xattot edi. U ko'pgina badiiy asarlarni va devonlarni chiroyli qilib ko'chirgan. Ko'plab xattotlar yetishtirib chiqargan. Ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrikon, Sharif Tarro devon, Matyoqub Xarrot devonlar shular jumlasidandir. Komil Xorazmiy va uning shogirdlari tomonidan ko'chirilgan devonlar jahoning bir qancha mamlakatlari kutubxonalari fondlarida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda.

⁴ Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч: "Хоразм", 1992. – Б 67.

⁵ Хайруллаев М. Буюк сиймолар, фломалар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1997. – Б. 78-79.

⁶ Xudayarova D. Komil Xorazmiy she'riyatida ijtimoiy masalalar talqini borasida ba'zi mulohozalar. / "Zamonaviy dunyoda, ijtimoiy fanlar nazariyi va amaiy izlanishlar" nomli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya ma'teriallari.

Komil Xorazmiy xattot bo‘lish bilan birga mohir tarjimon ham edi. U XVIII asrda yashab o‘tgan Barxo‘rdor bin Mahmud turkman Mumtozning “Mahbub ul-qulub” asarini tarjima qilgan. Asar nasriy yo‘lda yozilgan bo‘lib, kichik-kichik hikoya va latifalarни o‘z ichiga olgan.

Faxriddin Ali Safiyning “Latoif at-tavoyib” (“Turli toifalarning latifalari”) asarini tarjimasi ham Komil Xorazmiy qalamiga mansubdir. Kitobdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mashhur kishilar haqidagi hikoya va latifalar o‘rin olgan.

Komil Xorazmiy bu asarlarni tarjima qilish bilan birgaularga ayrim o‘zgarishlar ham kiritgan, ba’zi hikoyalarni qayta ishlagan, kitobning uslubini o‘z davridagi kitobxonlarning did va saviyasiga moslashtirgan. Bir so‘z bilan aytganda, Komil Xorazmiy o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an’analarini davom ettirdi va ilg‘or adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan. O‘z xalqini ma’rifatli, diyorini ozod, obod, farovon ko‘rishni orzu qilgan. Shoирning orzulari faqat bizning kunlarimizda ro‘yobga chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комил Хоразмий. Танланган шеърлар. – Т., 1961. – Б. 1-2.
2. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч: “Хоразм”, 1992. – Б 67.
3. Хайруллаев М. Буюк сиймолар, фломалар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1997. – Б. 78-79.
4. Xudayarova D. Komil Xorazmiy she’riyatida ijtimoiy masalalar talqini borasida ba’zi mulohozalar. / “Zamonaviy dunyoda, ijtimoiy fanlar nazariy va amaiy izlanishlar” nomli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya ma’teriallari.
5. <https://oriftolib.uz>
6. <https://axiv.uz>
7. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОК АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
8. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
9. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G ‘O ‘ZANI SUG ‘ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
10. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
11. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
12. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.

13. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. *The Way of Science*, (4), 77.
14. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
15. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
16. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суғориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
17. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУГОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
18. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиков Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
19. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
20. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G‘O‘ZANI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>